

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI**



**«Texnologiya» fakulteti
QXT– 250 - guruh talabasi
Aralova Munavvarning
«Dehqonchilik ilmiy izlanish asoslari bilan»
fanidan bajargan**

REFERATI

Bajardi:

M.Aralova

Qabul qildi:

A. Qarshiyev

QARSHI – 2015

Mavzu: Dehqonchilikka qo'llashga tadbiq qilingan yangi texnologiyalar haqida ma'lumot

Reja:

- 1. Dehqonchilikda tejamkor va samarador texnologiyalar**
- 2. Tomchilatib sug'orish texnologiyasi.**
- 3. Tomchilatib sug'orishning afzalliklari**
- 4. Issiqxonalar.**

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yerga bo'lgan munosabatlarni tartibga solish, yer resurslaridan unumli foydalanish darajasini oshirishga qaratilgan qator qonun va huquqiy me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston respublikasining «Yer kodeksi», «Ferma xo'jaligi to'g'risida» gi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlar yer egalarining huquqlari, uzoq muddatli yer maydonlaridan maqsadli va oqilona foydalanishdagi javobgarlikni ko'chaytish hamda tuproqlarning tabiiy unumdorligini saqlash hamda uni oshirishga qaratilgan dehqonchilik tizimlarini yaratish va madaniyatini oshirishga xizmat qilayotir.

Prezidentimiz Islom Karimov «Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroziga to'xtalar ekan agrosanoat majmuida islohatlarni chuqurlashtirishda prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlar qatorida yerga, xususan tuproq unumdorligiga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydi.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, sarf xarajatlarni imkon qadar qisqartirish, mavjud resurslardan tejab – tergab foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Bu borada keyingi yillarda anchagina ilg'or ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, dehqonchilikning yangi tizimi joriy etilishi bilan yangi texnologiyalar ham kirib kelmoqdaki, ularni har taraflama agrotexnologik jihatdan ham, iqtisodiy no'qtai nazardan ham baholash lozim bo'ladi. Jumladan, g'o'zani plyonka ostida o'stirish, qora plyonkani qator oraliqlariga to'shash yo'li bilan g'o'zani sug'orish soni va me'yorini kamaytirish, shuningdek bu tadbir bilan bog'liq bo'lgan barcha texnologik tadbirlardan voz kechish kabi jarayonlar shular jumlasidandir. Shu nuqtai nazardan ham tanlangan mavzu davr talabidan kelib chiqqan holda dolzarb hisoblanadi va mintaqaning tuproq – iqlim sharoitida har taraflama o'rganishga molikdir.

Dehqonchilikda tejamkor va samarador texnologiyalar. Bugungi kunda suvga bo'lgan talabning ortishi suvdan oqilona va unumli foydalanishni taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, sug'orishda ilg'or va tejamkor usullarni joriy etish vazifasini qo'yimoqda. Amaliyotda qo'llashga tavsiya etilayotgan tomchilatib, polietilen plyonka, egiluvchan shlanglar orqali sug'orish texnologiyalari va ularning afzalliklari katta ahamiyatga ega.

– Tomchilatib sug'orish texnologiyasi sug'orish ishlarini me'yorida tashkil etish imkonini beradi. Mazkur usul tashlama va chuqur filtratsiya suvlari yo'qolishiga yo'l qo'ymaydi, vegetatsiya davrida iqlim sharoiti, tuproqning holatidan kelib chiqib suv berish, turli mineral o'g'itlarni suv orqali o'simlikning ildiziga yuborish, sug'orish tizimini avtomatlashtirish imkonini beradi. Natijada, dehqonchilikda samaradorlik bir necha barobar ortadi.

Dehqonchilikka qo'llashga tadbiq qilingan yangi texnologiyalar qishloq xo'jaligi ekinlarini tomchilatib, yomg'irlatib sug'orish , ochiq va yopiq maydonlarda ekinlarni parvarishlashda zararkunandalarga qarshi samarali kurashish yo'llari va qo'llanuvchi vositalar misolida ko'rish mumkin.



Yer osti tomchilatib sug'orish tizimini. Bu tizimni afzalliklari shundaki, tuproqdagi suv bug'lanishi keskin kamayadi, quyosh radiatsiyasi sug'orish quvurlariga ta'sir etmaydi, qishloq xo'jaligi texnikalarining harakatlanishiga to'sqinlik bo'lmaydi.

Tomchilatib sug'orishning afzalliklari

Mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanish asnosida suvli erlardan olinadigan hosil miqdori va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, obi hayotning asosiy qismi qishloq xo'jaligi uchun sarflanar ekan. Masalan, yuz kilogramm bug'doy etishtirish uchun o'rta hisobda 211 ming litr, uzum etishtirish uchun 100, paxtaga 412 ming litr suv kerak bo'ladi. Dunyodagi bir milliarddan ortiqroq odam suv taqchil bo'lgan hududlarda istiqomat qilmoqda.

Yurtimizda 4,3 million gektar sug'oriladigan maydon mavjud. Ularni o'z vaqtida suv bilan ta'minlash va erlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida suv omborlari, magistral hamda xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlaridan foydalanilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning 2007 yil 29 oktabrda qabul qilingan «Erlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bu boradagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishda muhim dasturilamal bo'layotir.

Mamlakatimizda qatrasi gavharga teng obi hayot resurslaridan tejamli, maqsadli va samarali foydalanish choralari ko'rilmoqda. Ariq va zovurlar tozalanib, suv inshootlari va nasos agregatlari ta'mirlanmoqda. Fermer xo'jaliklarining suv olish "quloq"lari zamonaviy uskunalar bilan jihozlanib, ekinlarni sug'orish jarayonini takomillashtirish maqsadida sohaga yangi texnologiyalar tatbiq etilayotir.

– Yurtimiz iqlim sharoitiga ko'ra ekinlar egatlab, tomchilatib va yomg'irlatish usullarida sug'oriladi, – deydi O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligining suv resurslari balansi va suvni tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Vohidjon Ahmadjonov. – Ilgari foydalanilgan egatlab sug'orish usulida suv ko'p isrof bo'lgani uchun hozir

tomchilatib sug'orishdan foydalanish ko'lami kengaymoqda. Bu – kam suv sarflab, yuqori hosil olishga xizmat qiladi. O'simlikka suvning quvurlar vositasida etkazib berilishi sug'orish va oziqlantirish jarayonini to'liq avtomatlashtirish imkonini beradi.

Bu usul murakkab relefli, nishabligi katta maydonlar, qurg'oqchilik uzoq davom etadigan va kuchli shamol turadigan hududlar, tuproq qatlami yupqa, suv shimilishi yuqori maydonlarda, ayniqsa, yaxshi samara beradi. Tuproqqa faqat zarur miqdorda suv quyilishi er osti suvlari sathining ko'tarilishi, dalaning botqoqlanishi va erlar sho'rlanishining oldini oladi.

Egatlab sug'orilganda sug'orish oralig'i ikki haftacha bo'ladi. Bunda dastlab tuproq namligi ortsa, keyinchalik namlik etishmaydi. Ya'ni, o'simlik ildizi avval ortiqcha namdan, keyinchalik esa namlik etishmasligidan aziyat chekadi. Bunday sharoitda o'simlik suv va oziq moddalarni o'zlashtirish uchun ko'p energiya sarflashi evaziga notekis rivojlanadi.

Tomchilatish usulida sug'orishlar soni va me'yor boshqariladi. O'simlik ildiz qatlamida optimal namlikni ta'minlash zarur bo'lgan vaqtda suvga kerakli o'g'itlar qo'shiladi. Suv va ozuqa dalada bir tekis taqsimlangach, ekinlar bir xil rivojlanib, hosil ham bir vaqtda etiladi.

Suv kam bo'lganda quduqlardan foydalanib, katta maydonlarni sug'orish imkonini beradigan tomchilatish usuli hozir yurtimizning tog'oldi mintaqalarida qo'llanilib, suv va o'g'it sarfi ikki barobar iqtisod qilinmoqda. Samarqand tumanidagi “Ohalik oltin bog'i” fermer xo'jaligi 2008-2010 yillar mobaynida 518 gektar maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy

etdi. Uning 109 gektarida sabzavot, qolgan qismida esa bog' va tokzorlar parvarishlanmoqda.

– 290 gektarlik bog'imizda tomchilatib sug'orish texnologiyasini qo'llab, hosildorlikni sezilarli darajada oshirishga erishdik, – deydi Samarqand viloyati Narpay tumanidagi “Narpayobod” fermer xo'jaligi rahbari Keldiyor Ro'ziev. – Bu usulning har jihatdan iqtisodiy samaradorligi bizga juda ma'qul kelmoqda. Misol uchun, o'simlik ildiz atrofi doimo nam bo'lishi hisobiga erda tuz yig'ilishi va tuproq qotishining oldi olinadi. Kultivatsiya qilib, o'g'itlash uchun texnika ishlatishga zarurat qolmagach, yoqilg'i-moylash materiallari sarfi kamayadi. Mikroblar kecha-kunduz uxlamay, paykallarga suv tarash tashvishidan qutilishi qo'l mehnatini kamaytiradi.

Bugungi kunda yurtimizda suvdan tejamkorlik bilan foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslari mustahkamlangan. 1993 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi qonunida suv davlat mulki va umummilliy boylik hisoblanib, suv davlat tomonidan qo'riqlanadi, deb alohida belgilab qo'yilgan.

Iste'molchilarga etkazib berilayotgan suvning hisob-kitobini yuritish sug'orish samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Buning uchun sug'orish tarmoqlaridagi suv sarfini to'g'ri aniqlash lozim. Ushbu yo'nalishda O'rta Osiyo irrigatsiya ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan suv o'lchash vositalarining bir qator namunalari yaratilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Suv tezligini o'lchashga mo'ljallangan Pito naychasining takomillashtirilgan shakli, suv sarfini o'lchash va rostdashga xizmat qiluvchi quvursimon suv chiqargich – o'lchagich, shluz-suv o'lchagichlari

shular jumlasidan. Mazkur suv o'lchash vositalari qulay, ixcham va samarali bo'lib, ish unumdorligi va suv o'lchash aniqligini bir necha barobar oshiradi.

–Mamlakatimizda fermerlar ongiga obi hayotdan tejab-tergab foydalanish g'oyalarini singdirish, sug'orishning ilg'or uslublarini amaliyotga joriy etish ishlari yanada jadallashmoqda. Olimlar fermer xo'jaliklarga lazer uskunasini yordamida yer tekislashning yangi texnologiyasini taklif etdi. Buning uchun yangi texnika xarid qilish shart emas, balki TTZ-80.10 chopiq traktoridan foydalanib, tekislash ishlarini samarali bajarish mumkin. Bu yumush o'ta aniqlik bilan bajarilsa, ekin maydonlari tekisligi ta'minlanib, suvni tejashga erishiladi. Erning bir tekisda namlanishi hisobiga hosildorlik gektariga 4,5 sentnerga oshib, suv sarfi qariyb 20 foiz qisqaradi.

Issiqxonalar

Hozirgi kunda dehqonchilikda taraqqiy etayotgan texnologiyalardan biri bu issiqxonalardir. Issiqxonalarning taraqqiyoti sababli ancha oldin boshlangan bo'lsa ham hozirgi zamonaviy tomchilatish usuli bilan sug'oriladigan texnologiyalarni qo'llash orqali issiqxonalarda yilning har bir oyida istalgan meva, sabzavot mahsulotlarini yetishtirish mumkin.



Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Hozirgi kunda dehqonchilik tizimida juda katta izlanishlar qilinyapti va buning natijasida yangi texnologiyalar yaratilyapti. Masalan, tomchilatib sug'orish texnologiyasini o'rganib, shuni aytish kerakki, bu texnologiya suvni tejab ishlatishga va o'simliklar hayotida kerakli vaqtda suv bilan ta'minlay olinishini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari bugungi kunda issiqxonalar orqali dehqonchilik qilinmoqda. Issiqxonalarning yaratilganligi tufayli meva sabzavot mahsulotlarini yilning istalgan oyida yetishtirib, iste'molda foydalanish mumkin. Bu tarmoq ham dehqonchilikdagi yangi texnologiya bo'lmasligi mumkin, lekin hozirgi kunda zamonaviy issiqxonalar ham yaratilmoqda.

Hozirgi rivojlanib borayotgan 21-asrda fan texnika yutuqlari dehqonchilik tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatayapti. Ya'ni dehqonchilikka oid har xil texnikalar, gerbitsidlar va o'simliklarning yangi navlari yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artukmetov Z.A., Sheraliev H.Sh. Ekinlarni sug'orish asoslari. T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2006.
2. Norqulov U. Melioratsiya. Ma'ruzalar matni. T.: 2000.
3. Sheraliev H., Shodmonov M. Dehqonchilik. Ma'ruzalar matni. T.: 2004.
4. www.ziynet.uz